

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.06.2021.B.05.06
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

YOQUBOV ABUTOLIB AXMADALI O‘G‘LI

**FARG‘ONA VODIYSI SHAROITIDA KUZGI TUNLAM (*AGROTIS
SEGETUM*) BIOEKOLOGIYASI VA UNGA EDAFIK OMILLARNING
TA‘SIRI**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Farg‘ona–2025

UO‘K: 632.7:595.784:631.4(575.86)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Yoqubov Abutolib Axmadali o‘g‘li

Farg‘ona vodiysi sharoitida kuzgi tunlam (*Agrotis segetum*)
bioekologiyasi va unga edafik omillarning ta‘siri 3

Ёкубов Абутолиб Ахмадали угли

Биоэкология озимой совки (*Agrotis segetum*) в условиях
Ферганской долине и влияние на нее эдафических факторов ... 21

Yokubov Abutolib Axmadali ugli

Bioecology of turnip moth (*Agrotis segetum*) under Fergana Valley
conditions and the influence of edaphic factors on it 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 45

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.06.2021.B.05.06
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

YOQUBOV ABUTOLIB AXMADALI O‘G‘LI

**FARG‘ONA VODIYSI SHAROITIDA KUZGI TUNLAM (*AGROTIS
SEGETUM*) BIOEKOLOGIYASI VA UNGA EDAFIK OMILLARNING
TA‘SIRI**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Farg‘ona–2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/B1315 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Farg‘ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fdu.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Zokirov Islomjon Ilhomjonovich
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mirzayeva Gulnara Saidorifovna
biologiya fanlari doktori, professor

Yunusov Mirzakarim Mirzaxalilovich
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.06.2021.B.05.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 12-iyul kuni soat 09:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 150100, Farg‘ona shahri, Murabbiylar ko‘chasi, 19-uy. FarDU.Tel.: (+99873) 244-44-02, faks (+99873) 244-44-93, E-mail: fardu_info@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Farg‘ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№539-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 150100, Farg‘ona shahri, Murabbiylar ko‘chasi, 19-uy, Tel.: (+99873) 244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 30-iyun kuni tarqatildi.
(2025-yil 30-iyundagi 26-raqamli reyestr bayonnomasi)



F.R. Xolboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi o‘rinbosari, b.f.d., professor

B.M. Sheraliyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, b.f.f.d.

A.K. Xusanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda qishloq xo‘jaligi ekinlarini zararkunanda va kasalliklardan himoya qilish, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash va ekotizimlar barqarorligini mustahkamlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda zararli hasharotlar, xususan, *Agrotis segetum* turining areali kengayib, uning turli geografik mintaqalar bo‘ylab tarqalishi jadal tus olmoqda. Natijada, adventiv va invaziv turlar ro‘yxatida qayd etiladigan mazkur tunlamning zarari ayniqsa qishloq xo‘jaligi ekinlari va tabiiy ekotizimlar uchun jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Kuzgi tunlamning populyatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar cheklangan bo‘lib, tadqiqotlarning aksariyati uning faqat birlamchi biologik xususiyatlari hamda qishloq xo‘jaligiga yetkazadigan zararini o‘rganish bilan kifoyalanadi. O‘zining keng oziqlanish spektriga ega bo‘lgan kuzgi tunlam jiddiy biomassa yo‘qotilishiga sabab bo‘lib, hosildorlikka ham salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shunga ko‘ra, Farg‘ona vodiysi sharoitida kuzgi tunlamning bioekologiyasini aniqlash, genetik o‘ziga xosliklarini tahlil qilish hamda ushbu turning rivojlanishida tuproq-iqlim (edafik) omillarining roli va ahamiyatini belgilash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda kuzgi tunlamning morfobiologik xususiyatlari, rivojlanish sikli, fiziologiyasi va molekulyar-genetik tarkibini aniqlashga doir tadqiqotlar ko‘lami tobora ortib bormoqda. Bu borada, zararli tunlamlarning ommaviy ko‘payishi, turli ekotizimlarni zararlash darajasi va karantin holatlarining kuchayishiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, mazkur zararkunanda, qulay iqlim va ozuqa sharoitlari vujudga kelganda, mavsum davomida dala sharoitida hosilga jiddiy tahdid soladi. Ushbu jarayonning biologik asoslarini ochib berish turning fiziologik moslashuvchanligi, turli mintaqalarda barqaror ko‘payib borishining oldini olishga imkon yaratadi. Shundan kelib chiqib, kapalakning molekulyar, fiziologik va ekologik xususiyatlarini aniqlash, tuproq sharoitlari – namlik, pH darajasi, tarkibiy elementlari va mikrofloraning tur rivojiga ta‘sirini baholash hamda uning keng oziqlanish diapazonini nazorat qilish bo‘yicha samarali kurash choralarini ishlab chiqish bugungi kunda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda zararkunanda tunlamlarning tarqalishi, zararlilik darajasi va ularga qarshi kurash chora-tadbirlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar ko‘lami ortib bormoqda. Xususan, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmini barqaror oshirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 barobarga oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sishini kamida 5 foizga yetkazish”¹ kabi vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, jumladan, Farg‘ona vodiysi sharoitida *Agrotis segetum* populyatsiyalarining taksonomik tahlili, tuproq-iqlim sharoitining lichinka, g‘umbak va kapalak bosqichlariga ta‘siri, oziqlanish xususiyatlari va edafik omillarning integratsion roli, zararkunandaga qarshi biologik va uyg‘unlashgan

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

himoya choralarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 31-avgustdagi “Qishloq xo‘jalik o‘simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o‘tlardan himoya qilish to‘g‘risida”gi 116-II-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonlari va uni amalga oshirishga oid qabul qilingan Davlat dasturlari, 2021-yil 15-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi o‘simliklar karantini va himoyasi agentligini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-5185-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. *Agrotis segetum* ning keng tarqalish xususiyatlari va ekologik moslashuvchanligi xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, D.S. Hill (1987), G.A. Matthews (2011), T.R. Southwood, P.A. Henderson (2009) larning ishlarida zararkunandaning Yevropa va Osiyo hududlarida keng yoyilishi, iqlim o‘zgarishlar ta‘sirida uning yangi geografik mintaqalarga tarqalishiga sabab bo‘layotgani qayd etilgan. J.Guo va boshq. (2015), B.Dolenec (2012), Š.Kalan (2010) hamda K.N. Manjula & Y.K. Kotikal (2018) kuzgi tunlamning avlodlar soni, migratsion xususiyatlari, rivojlanish sikli va oziqlanish spektrini atroflicha o‘rganishgan.

MDH olimlari ichida N.M. Melikova (2013), M.Z. Shaydabekova (2009) va Sh.T. Soliyev (2015) Dog‘iston hamda Tojikiston kabi tog‘li va qurg‘oqchil hududlarda *A.segetum* populyatsiyasining fenologiyasi, zarar keltirish xususiyatlari va ommaviy ko‘payish omillarini tahlil qilishgan. Shuningdek, N.A.Saranteva va I.Y. Bobreshova (2007), A.M. Gadjiyeva (2009), D.M. Magomedova (2006) kuzgi tunlamning tuproq namligi hamda haroratga moslashuvchanligi, populyatsiyaning dinamikasi va xavfli bosqichlarini baholash bo‘yicha izlanishlar olib borishgan.

O‘zbekiston olimlaridan S.Alimuxamedov va Sh.Xo‘jayev (1991), A.T.Xolliyev, S.E.Dusmanov, L.A.Abduvosikova (2020) *A.segetum* ning sabzavot-poliz ekinlaridagi zararini o‘rganishgan. I.I.Zokirov (2019) feromon tuzoqlar yordamida monitoring tizimini takomillashtirish, M.R.Shermatov (2024) esa Farg‘ona vodiysi sharoitidagi populyatsiyalar tarqalishini tahlil qilishga e‘tibor qaratgan. Sh. Yusupova (2024) kuzgi tunlamning Namangan viloyati sharoitidagi rivojlanish bosqichlarini chuqur tadqiq etib, zararkunandaga qarshi kurash choralari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqqan.

Biroq, mazkur tadqiqot ishlari O‘zbekistonda amalga oshirilgan bo‘lishiga qaramay, Farg‘ona vodiysining turli agrotsenozlarida, xususan, turli tuproq tiplarida tarqalishi bo‘yicha to‘liq ma‘lumot bera olmaydi. Shunga ko‘ra, Farg‘ona vodiysi

sharoitida kuzgi tunlamning bioekologiyasini aniqlash, genetik o'ziga xosliklarini tahlil qilish hamda ushbu turning rivojlanishida tuproq-iqlim (edafik) omillarning roli va ahamiyatini belgilash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Farg'ona vodiysi o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va bioxilma-xillikni saqlash muammolari" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Farg'ona vodiysi sharoitida kuzgi tunlamning bioekologiyasini aniqlash, genetik o'ziga xosliklarini tahlil qilish hamda ushbu turning rivojlanishida tuproq-iqlim (edafik) omillarining roli va ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Farg'ona vodiysi sharoitida *A. segetum* ning molekulyar (COI geni) identifikatsiyasi va populyatsiyalararo tafovutlarini aniqlash;

Agrotis segetum ning fenologik xususiyatlari va ularning haroratga bog'liqligini ochib berish;

tuxum qo'yish ko'rsatkichlari, lichinka bosqichlari va g'umbaklanish jarayonining (tuproq chuqurligi, davomiyligi) biologik ahamiyatini asoslash;

turli ekinlardagi (shakar-oqsil, glyukozinolat) oziqlanish xususiyatlarini lichinka massasi va tana uzunligiga ta'sirini aniqlash;

tuproqning fizik-kimyoviy xususiyatlari (namlik, pH, sho'rlanish) hamda iqlim omillarining (harorat va namlik balansi) *A. segetum* populyatsiyasi rivojlanish sur'ati va diapauza chuqurligiga ta'sirini ochib berish;

Agrotis segetum populyatsiyasining turli agroekotizimlarda doimiy saqlanishini ta'minlovchi omillarni aniqlash.

Tadqiqotning obyeksi sifatida Farg'ona vodiysining tabiiy va madaniy senozlarida uchrovchi *Agrotis segetum* turi olingan.

Tadqiqotning predmetini *Agrotis segetum* ning tarqalishi, bioekologiyasi va morfometrik ko'rsatkichlari, molekulyar-genetik tahlili tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada entomologik, taksonomik, morfologik, fenologik, molekulyar-genetik (DNK barkoding), matematik-statistik hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor COI geniga asoslangan DNK barkoding tahlillari Farg'ona vodiysi namunalarining 99-100% aniqlikda *A. segetum* turiga mansubligi hamda genetik masofa (K2P) 0,2-0,3% bo'lib, tur ichidagi populyatsiyalararo tafovut mavjudligi aniqlangan;

Farg'ona vodiysida *A. segetum* yiliga 4 avlod berishi, tuxum qo'yish bahor va kuzda faol bo'lishi hamda rivojlanish haroratga bog'liqligi aniqlanib, urg'ochilar bir mavsumda 400-1900 (laboratoriyada 450) tagacha tuxum qo'yishi hamda lichinkag'umbak xususiyatlari (5-25 sm chuqurlikda, 7-14 kun) asoslab berilgan;

shakar va oqsilga boy lavlagi va sabzida lichinkalar uzunligi (40 mm) va massasi (640-660 mg) yuqori, glyukozinolatga boy sholg'om va turpda past (36-

37 mm, 618-628 mg) bo'lishi, boshqa oila o'simliklari esa *A. segetum* populyatsiyasining doimiy saqlanishiga sharoit yaratishi aniqlangan;

turli agrotsenozlarda lichinka tana og'irligi variatsiya koeffitsiyenti turp va sholg'omdagi individlarda yuqori (5,46-5,70%), lavlagi va sabzida past (3,52-4,09%) bo'lishi, tana uzunligi ko'rsatkichi esa (3-3,6%) barqaror saqlanib, zararkunanda populyatsiyalaridagi moslashuv mexanizmlarining xilma-xilligi asoslangan;

tuproqning fizik, kimyoviy hamda biologik xususiyatlari *A. segetum* ning rivojlanish sur'atlari va xavflilik darajasiga bevosita ta'sir etishi aniqlangan hamda sovuq, tuproqning sho'rlanishi yoki ortiqcha namligi lichinkalarning nobud bo'lishi va populyatsiyaning pasayishiga olib kelishi isbotlangan;

sho'rlangan tuproqlarda lichinkalarning qishlash chuqurligi (11-12 sm gacha) ortib, eskidan sug'oriladigan tuproqlarda 8-9 sm atrofida bo'lishi qayd etilgan va farqlar statistik jihatdan ishonchli bo'lib, populyatsiya stress omillarga diapauza xususiyatini moslashtirishi bilan javob reaksiyasi hosil qilishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

A. segetum turining yiliga to'rtta avlod berib rivojlanishi, tuxum qo'yish davri va haroratga bog'liqlik haqida olingan ma'lumotlar asosida zararkunandaga qarshi kimyoviy, biologik va mexanik kurash choralarini optimal muddatlarda qo'llash uchun amaliy asos yaratilgan;

ekinlarda *A. segetum* lichinka massasi va uzunligi yuqori yoki past bo'lishini aniqlash orqali ekinlar almashinuvi, shuningdek glyukozinolat moddalari yuqori bo'lgan ekinlardan foydalangan holda zararkunanda populyatsiyasini kamaytirish chorolari ishlab chiqilgan;

tuproqni sug'orish rejimini to'g'ri tashkil etish, sho'rlanishni kamaytirish, entomopatogen mikroorganizmlardan foydalanish kabi agrotexnik tadbirlar bilan *A. segetum* xavfini kamaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda entomologik klassik va zamonaviy molekulyar-genetik usullardan foydalanilganligi, ilmiy farazlar, keng ko'lamlil tahlil natijalarining nazariy ma'lumotlarga mosligi, ularning turli xalqaro va milliy ilmiy nashrlarda e'lon qilinganligi, hasharotlar populyatsiya zichligi suratlari hamda morfometrik belgilarning matematik-statistik uslublar asosida tahlil etilganligi, shuningdek amaliy natijalarning vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi hamda amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Farg'ona vodiysi sharoitida *A. segetum* ni COI geniga asoslangan DNK barkoding orqali identifikatsiya qilinganligi, fenologik davrlar va avlodlar rivojlanish xususiyatlari tadqiq etilganligi, edafik omillar va ozuqa ro'yxatining populyatsiya barqarorligiga ta'siri tahlil etilganligi, morfometrik belgilarning variabelligi ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati *Agrotis segetum* nukleotidlar ketma-ketligi bo'yicha ma'lumotlari Biotexnologik axborotlar milliy markazi GenBanki bazasiga joylanganligi va natijada xalqaro miqyosda tunlamlar filogeniyasini molekulyar-genetik identifikatsiyalash imkonini berganligi, Farg'ona vodiysi

hududida uchrovchi namunalari “Zoologiya kolleksiyasi” noyob obyektiga kiritilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Farg‘ona vodiysi sharoitida kuzgi tunlam (*Agrotis segetum*) bioekologiyasi va unga edafik omillarning ta’siri bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Agrotis segetum ning COI nukleotidlar ketma-ketligi bo‘yicha ma’lumotlari Biotexnologik axborotlar milliy markazi GenBanki bazasiga joylashtirilgan (Biotexnologik axborotlar milliy markazining 2024-yil 26-avgustdagi ma’lumotnomasi, blast.ncbi.nlm.nih.gov). Natijada, *Agrotis segetum* – PQ225944 va PQ225945 inventar raqamlari olingan va ular xalqaro miqyosda tunlamlar filogeniyasini molekulyar-genetik identifikatsiyalash imkonini bergan;

Farg‘ona vodiysi turli agrotsenozlarida uchrovchi *A. segetum* ning 68 nusxadagi namunalari O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Zoologiya institutining “Zoologiya kolleksiyasi” noyob obyektiga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024-yil 7-avgustdagi №4/1255-1769-son ma’lumotnomasi). Natijada mavjud hasharotlar kolleksiyasi fondini yangi namunalar bilan boyitgan va ular populyatsiyalari tarqalishining zamonaviy holatini baholash hamda kadastr ma’lumotlarini tayyorlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik (PhD) dissertatsiyalari natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan 7 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matni hajmi 117 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Kuzgi tunlamni o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar sharhi**” deb nomlangan birinchi bobida kuzgi tunlamning tarqalishi, ekologiyasi, zarari va unga qarshi kurash choralari haqida, ularga qarshi kurash choralari ishlab chiqish borasida shu davrgacha olib borilgan yuzdan ortiq tadqiqot ishlari natijalari va chop etilgan adabiyotlar tahlili keltirilgan.

Ushbu tahlil natijalariga tayangan holda, tuproq-iqlim omillari va hududiy farqlarni batafsilroq tadqiq etish zarurati dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, genetik tadqiqotlar yordamida zararkunandaning ekologik moslashuvchanligini tahlil qilish

va global iqlim o'zgarishlari sharoitida kuzgi tunlam populyatsiyasidagi o'zgarishlarni kuzatish zarurligi xulosa qilingan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot hududi, o'rganish usullari va materiallari**» deb nomlangan ikkinchi bobi uch qismdan iborat bo'lib, tadqiqot hududi bo'lgan Farg'ona vodiysining tabiiy iqlim sharoiti va namuna yig'ilgan hududlar, kuzgi tunlamni morfometrik belgilaridan o'lchamlar olish, matematik-statistik tahlillarni amalga oshirish haqida ma'lumotlar berilgan.

Tadqiqot materiallari 2020-2024 yillar davomida Farg'ona vodiysining Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlariga tegishli tuman va shaharlardagi tabiiy hamda madaniy senozlardan yig'ilgan. Tadqiqotlar davomida kuzgi tunlamning 3500 dan ortiq imago va lichinkalari yig'ilgan.

Namunalarni yig'ish, qayta ishlash va kolleksiyalar tayyorlashda V.B.Golub (2012), I.I.Zokirov va G.M.Zokirovalar (2024) tomonidan ishlab chiqilgan va taklif etilgan uslublar va tavsiyalardan foydalanilgan.

Kuzgi tunlamni ekin ekishdan avval o'rganishda V.P.Vasilyeva va boshqalar (1975) tavsiya etgan uslublardan foydalanilgan. Bunda tunlamni hisobga olish uchun har bir dalada shaxmat usulida 50x50 sm o'lchamli 8-16 ta chuqurchalar kovlanib namunalar olingan. Ulardagi hasharotlar toza efirga solindi, 4% formalin yoki 70% li spirt bilan 1 % glitserin aralashmasida saqlangan. Tunlamlarning uchrash darajasi, populyatsiya miqdor zichligi K.K.Fasulati (1975) uslubi bo'yicha aniqlangan. Turli xil ozuqa o'simliklarini kuzgi tunlamning rivojlanishi hamda morfologik xususiyatlariga ta'sirini o'rganishga oid tajribalarda M.Shermatov(2024) tomonidan taklif etilgan uslubdan foydalangan holda amalga oshirildi. Bobda, shuningdek, tunlam lichinkalari rivojlanishiga tuproq namligining ta'sirini o'rganish, 6-yoshdagi qurtlarning tuproq namligini tanlash xususiyatlarini o'rganish, tuproq tarkibining kuzgi tunlam qurtlarining qishlash va g'umbaklanish chuqurligiga ta'sirini o'rganish, tuproq tarkibining tunlam g'umbagi hayotchanligi va kapalak chiqish darajasiga ta'sirini o'rganish usublari batafsil yoritilgan.

DNK ekstraksiyasi hasharotning butun tanasini erituvchi K-proteinaza qo'llagan holda standart fenol-xloroform uslubida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya institutining Molekulyar zoologiya laboratoriyasida amalga oshirilgan (Sambrook & Russell, 2000). Mitoxondrial sitoxrom oksidaza I (COI) genining PZR amplifikatsiyasi uchun Folmer va boshq. (1994) tomonidan taklif qilingan universal praymerlardan foydalanilgan. Molekulyar tahlillar BLAST, BOLD Systems, Mega7, SeaView, FigTree 1.4.2 dasturlari asosida amalga oshirilgan.

Dissertatsiyaning «**Farg'ona vodiysi sharoitida *Agrotis segetum* turining morfo-bioekologiyasi**» deb nomlangan uchinchi bobi to'rt bo'limdan iborat.

Farg'ona vodiysidagi *Agrotis segetum* populyatsiyalarining molekulyar taksonomik tahlili deb nomlangan 3.1-paragrafda *Agrotis* urug'iga mansub turlarning murakkab taksonomik tarixi va ayniqsa, *A. segetum* turining aniq tasniflanishida molekulyar yondashuvning ahamiyati keltirilgan.

So'x namunasi

Agrotis segetum mitochondrion, complete genome
Sequence ID: PP230665.1 Length: 15382 Number of Matches: 1


Score	Expect	Identities	Gaps	Strand
1197 bits(648)	0.0	650/651(99%)	0/651(0%)	Plus/Plus
Query 1	ATTTTAAATTTTACCTGGATTTGTA	AAATTTTCATATTTTACAAAGAAAGGaaaa	60	
Sbjct 2183	ATTTTAAATTTTACCTGGATTTGGA	AAATTTTCATATTTTACAAAGAAAGGAAAA	2242	
Query 61	aaagAAACATTTGGTTGTTAGGTATAA	TTATGCTATATTAGCAATTGGATTCTGGGA	120	
Sbjct 2243	AAAGAAACATTTGGTTGTTAGGTATAA	TTATGCTATATTAGCAATTGGATTCTGGGA	2302	
Query 121	TTTTATGTTTGGAGCTCATCATATATTT	ACAGTAGGAATAGATATTGACTCGAGCATAT	180	
Sbjct 2303	TTTTATGTTTGGAGCTCATCATATATTT	ACAGTAGGAATAGATATTGACTCGAGCATAT	2362	
Query 181	TTTACTTCAGCAACAATAATTTGCTGT	ACCAACAGGAATAAAAATTTAGTTGATTA	240	
Sbjct 2363	TTTACTTCAGCAACAATAATTTGCTGT	ACCAACAGGAATAAAAATTTAGTTGATTA	2422	
Query 241	GCTACTTCCATGGAACACAAATTAAT	TTCCTCTCATTTATGAAGATTAGGATTT	300	
Sbjct 2423	GCTACTTCCATGGAACACAAATTAAT	TTCCTCTCATTTATGAAGATTAGGATTT	2482	
Query 301	GTAATTTTATTTACTGTAGGAGGATTA	ACAGGAGTAATTTATCAAATTCATCTAATGAT	360	
Sbjct 2483	GTAATTTTATTTACTGTAGGAGGATTA	ACAGGAGTAATTTATCAAATTCATCTAATGAT	2542	
Query 361	ATTACCTTACAGGATACATATTTATG	TAGTGGCCATTTTCATTATGTTTATCCATAGGA	420	
Sbjct 2543	ATTACCTTACAGGATACATATTTATG	TAGTGGCCATTTTCATTATGTTTATCCATAGGA	2602	
Query 421	GCAGTATTGCTATTTAGGGGGGTTT	ATTCATTGATACCAATTTACAGGATTATCC	480	
Sbjct 2603	GCAGTATTGCTATTTAGGGGGGTTT	ATTCATTGATACCAATTTACAGGATTATCC	2662	
Query 481	TTAAACCCGtatttataaaaaattca	atttttggtaatttttggagtaaaatttaact	540	
Sbjct 2663	TTAAACCCGtatttataaaaaattca	atttttggtaatttttggagtaaaatttaact	2722	
Query 541	ttttccacacacatttttaggattagc	tggaaatctcgacgatactcagattaccct	600	
Sbjct 2723	ttttccacacacatttttaggattagc	tggaaatctcgacgatactcagattaccct	2782	
Query 601	GATTCCTATATTTATGAAATATTA	TTCATCTCAGGATCTTATATCTCT	651	
Sbjct 2783	GATTCCTATATTTATGAAATATTA	TTCATCTCAGGATCTTATATCTCT	2833	

Qiziltepa namunasi

Agrotis segetum mitochondrion, complete genome
Sequence ID: PP230665.1 Length: 15382 Number of Matches: 1

Score	Expect	Identities	Gaps	Strand
1197 bits(648)	0.0	650/651(99%)	0/651(0%)	Plus/Plus
Query 1	ATTTTAAATTTTACCTGGATTTGGA	AAATTTTCATATTTTACAAAGAAAGGaaaa	60	
Sbjct 2183	ATTTTAAATTTTACCTGGATTTGGA	AAATTTTCATATTTTACAAAGAAAGGAAAA	2242	
Query 61	aaagAAACATTTGGTTGTTAGGTATAA	TTATGCTATATTAGCAATTGGATTCTGGGA	120	
Sbjct 2243	AAAGAAACATTTGGTTGTTAGGTATAA	TTATGCTATATTAGCAATTGGATTCTGGGA	2302	
Query 121	TTTTATGTTTGGAGCTCATCATATATTT	ACAGTAGGAATAGATATTGACTCGAGCATAT	180	
Sbjct 2303	TTTTATGTTTGGAGCTCATCATATATTT	ACAGTAGGAATAGATATTGACTCGAGCATAT	2362	
Query 181	TTTACTTCAGCAACAATAATTTGCTGT	ACCAACAGGAATAAAAATTTAGTTGATTA	240	
Sbjct 2363	TTTACTTCAGCAACAATAATTTGCTGT	ACCAACAGGAATAAAAATTTAGTTGATTA	2422	
Query 241	GCTACTTCCATGGAACACAAATTAAT	TTCCTCTCATTTATGAAGATTAGGATTT	300	
Sbjct 2423	GCTACTTCCATGGAACACAAATTAAT	TTCCTCTCATTTATGAAGATTAGGATTT	2482	
Query 301	GTAATTTTATTTACTGTAGGAGGATTA	ACAGGAGTAATTTATCAAATTCATCTAATGAT	360	
Sbjct 2483	GTAATTTTATTTACTGTAGGAGGATTA	ACAGGAGTAATTTATCAAATTCATCTAATGAT	2542	
Query 361	ATTACCTTACAGGATACATATTTATG	TAGTGGCCATTTTCATTATGTTTATCCATAGGA	420	
Sbjct 2543	ATTACCTTACAGGATACATATTTATG	TAGTGGCCATTTTCATTATGTTTATCCATAGGA	2602	
Query 421	GCAGTATTGCTATTTAGGGGGGTTT	ATTCATTGATACCAATTTACAGGATTATCC	480	
Sbjct 2603	GCAGTATTGCTATTTAGGGGGGTTT	ATTCATTGATACCAATTTACAGGATTATCC	2662	
Query 481	TTAAACCCGtatttataaaaaattca	atttttggtaatttttggagtaaaatttaact	540	
Sbjct 2663	TTAAACCCGtatttataaaaaattca	atttttggtaatttttggagtaaaatttaact	2722	
Query 541	ttttccacacacatttttaggattagc	tggaaatctcgacgatactcagattaccct	600	
Sbjct 2723	ttttccacacacatttttaggattagc	tggaaatctcgacgatactcagattaccct	2782	
Query 601	GATTCCTATATTTATGAAATATTA	TTCATCTCAGGATCTTATATCTCT	651	
Sbjct 2783	GATTCCTATATTTATGAAATATTA	TTCATCTCAGGATCTTATATCTCT	2833	

1-rasm. So'x (chapda) va Qiziltepa (o'ng)dan qayd etilgan *A. segetum* namunasining BLAST dasturi orqali tekshirilgandagi *A. segetum* (PP230665) bilan 'Alignment' solishtirma tasviri (<https://blast.ncbi.nlm.nih.gov/Blast.cgi>).




2-rasm. So'x hamda Qiziltepa hududlaridan qayd etilgan *A. segetum* hamda *Agrotis* urug'i ayrim vakillarining o'zaro NJ metodi asosida ishlab chiqilgan filogenetik shajara daraxti.


Klassik morfologik mezonlar ayrim kriptik turlarni (*A. clavis*, *A. exclamationis*) to'g'ri ajratishga kifoya qilmasligi sababli DNK barkoding (COI geni) usuli keng

qo'llanila boshlagan. Farg'ona vodiysidan qayd etilgan *A. segetum* namunalari, xususan, So'x va Qiziltepa hududlaridan to'plangan namunalar COI gen tahlilida Xitoy va boshqa mintaqalardan olingan *A. segetum* sekvensiyalari bilan 99-100% o'xshashlikni namoyon etgan. Shuningdek, mazkur namunalar o'zaro 0,2-0,3% genetik masofa (K2P) bilan tafovutlanishi, bu farq populyatsiyalararo o'zgarish doirasida ekanligi ko'rsatib berilgan. Buning natijasida So'x va Qiziltepa namunalari *A. segetum* turiga mansubligi tasdiqlangan (1, 2-rasmlar).

***Agrotis segetum* turining rivojlanish sikli bosqichlari nomli** 3.2-paragrafda *A. segetum* tunlamining tuxum, lichinka, g'umbak va imago bosqichlaridan iborat to'liq rivojlanish sikli bayon qilingan. Farg'ona vodiysida kuzgi tunlam yiliga 4 marotaba avlod berishi aniqlangan: birinchi avlod aprel oxiri – mayda, ikkinchisi iyun, uchinchi iyulda, to'rtinchisi esa avgust o'rtalaridan boshlab rivojlanadi. Urg'ochi kapalaklar har safar 400 tadan 1900 tagacha tuxum qo'yishi, laboratoriya sharoitida o'rtacha 450 taga yetishi qayd etilgan. Lichinkalarning 1-yoshdan 6-yoshgacha bo'lgan bosqichlarida tana rangi va morfologiyasi o'zgarib boradi: bosh kapsulasi, orqa qalqoncha, tukchalar soni, soxta oyoqlar va ularning tirnoqchalari rivojlanishida farqlar kuzatiladi. Tuproq ichida 5-25 sm chuqurlikda g'umbaklanish jarayoni 7-14 (ba'zida 21) kun davom etib, kapalak tuproq yuzasiga chiqadi (3, 4, 5-rasmlar).



3-rasm. Urg'ochi (a) va erkak(b) kapalakning umumiy ko'rinishi (original, A.Yoqubov)




4-rasm. Urg'ochi (a) va erkak (b) kapalaklarning mo'ylovining ko'rinishi (original, A.Yoqubov)



5-rasm. Kuzgi tunlam 6-yoshdagi qurti tanasining orqa va yon tomondan ko‘rinishi. (original A.Yoqubov)

***Agrotis segetum* turining turli sharoitlar va ozuqa o‘simligiga morfoekologik moslanish xususiyatlari** nomli 3.3-bo‘limida tuproq sharoitiga moslanishning morfologik va fiziologik jihatlari bayon etilgan. Qurtlarning silliq, kulrang-qo‘ng‘ir tusli tana qoplami ularni yirtqichlar ko‘zidan himoyalasa, rivojlangan chaynash apparati ildiz mevali o‘simliklarni kemirishga moslashgan. Tuproqning fizik-kimyoviy xususiyatlari (namlik, sho‘rlanish, pH) ham qurtlarning rivojlanish dinamikasiga ta‘sir etadi. Shu bois Brassicaceae (turp, sholg‘om) kabi glyukozinolat moddasi yuqori o‘simliklarda lichinkalar o‘sishi sust kechishi, sabzi va lavlagi kabi qand va oqsilga boy ildizmevalarda esa tezroq o‘sishi kuzatilishi mumkin.

Tunlam qurtlarining tana uzunligi va og‘irligiga ozuqa o‘simliklarining ta‘siri nomli 3.3.1-paragrafda 6-yoshdagi lichinkalar turli ildizmevalarda oziqlanganda ularning tana uzunligi va tana og‘irligida kuzatilgan farqlar statistik ko‘rinishda tahlil qilingan (6-rasm).



6-rasm. Kuzgi tunlam qurtlari og‘irligiga ozuqa o‘simliklarining ta‘siri (mm)

Qizil lavlagi va sabzida ozuqaviy moddalar (shakar, oqsil, vitaminlar) ko‘proq bo‘lganligi sababli qurtlarning o‘rtacha tana uzunligi 39-41 mm, og‘irligi esa 640-660 mg dan oshgani qayd etilgan. Sholg‘om va turp esa glyukozinolat va boshqa

himoya moddalariga boyligi bois qurtlar tana uzunligi 36-37 mm, og'irligi 618-628 mg atrofida bo'lib, nisbatan pastroq rivojlanish sur'atiga ega ekanligi aniqlangan.

Lichinkalar morfometrik o'lchamlari variatsiya koeffitsiyentining ozuqa o'simligiga bog'liqligi nomli 3.3.2-paragrafda tana uzunligi va tana og'irligi o'rtasidagi o'zgarishlar populyatsiya darajasida baholanib, variatsiya koeffitsiyenti (CV) usuli bilan tahlil qilingan. Qizil lavlagi hamda sabzi agrotsenozlarida tana og'irligi bo'yicha o'zgaruvchanlik 3,52-4,09% oraliq'ida bo'lib, turp va sholg'omda 5,46-5,70% gacha oshishi kuzatilgan. Tana uzunligi esa barcha ekinlarda nisbatan barqaror (3,36-3,6%) bo'lgan. Bu ozuqadagi cheklovchi moddalar (glyukozinolat, tanin) lichinkalar orasida individual farqlarni kuchaytirishi yoki aksincha, ozuqa boy bo'lganda populyatsiyaning "bir xil" bo'lib shakllanishiga sabab bo'lishi mumkinligini ko'rsatgan (1-jadval).

1-jadval

Ozuqa o'simligi	Tana uzunligi		Tana og'irligi	
	(CV%)	Scv(%)	(CV%)	Scv(%)
Qizil lavlagi	3,60	0,4248	3,52	0,399
Sabzi	3,41	0,3865	4,09	0,459
Sholg'om	3,39	0,384	5,46	0,62
Turp	3,36	0,3746	5,70	0,6475

Izoh: CV - variatsiya koeffitsiyenti. Scv - variatsiya koeffitsiyentining aniqligi.

Agrotis segetum turining oziqlanish spektri va o'simliklar bilan biotsenotik aloqalari nomli 3.4-bo'limda *A. segetum* turining polifag xususiyati yoritilib, Farg'ona vodiysida qayd etilgan 14 oilaga mansub 57 turdagi o'simlikda oziqlanishi qayd etilgan. Poaceae (bug'doy, arpa, makkajo'xori), Fabaceae (no'xat, loviya, soya), Brassicaceae (turp, sholg'om, karam), Amaranthaceae (lavlagi, ismaloq) singari ekinlar uning asosiy ozuqa manbaini tashkil etgan. Lichinkalar o'simliklarning ildiz, barg va poya qismlarini kemirib, urug'chi meva hosilalariga ham zarar yetkazishi mumkin. Yillik ekinlarda jadal rivojlanib, ko'p yillik o'simliklar yoki yovvoyi sharoitlarda ham saqlanib qolishi tufayli mazkur zararkunanda populyatsiyasi uzluksiz davom etish imkoniga ega.


Umuman olganda, uchinchi bobda Farg'ona vodiysi sharoitida *A. segetum* turining aniq taksonomik o'rnini DNK barkoding orqali belgilash, ayni paytda morfologik ko'rinish o'zgaruvchanligini tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Turli sharoit va ozuqa o'simliklarida lichinkalarning tana uzunligi, og'irligi va rivojlanish tezligi sezilarli ravishda farqlangoan. Qizil lavlagi va sabzida tana uzunligi va og'irligi yuqoriroq ko'rsatkichlarga ega bo'lsa, sholg'om hamda turpda bu qiymatlar pastroq bo'lgan. Polifag sifatida deyarli barcha asosiy ekinlarda uchrashi, zararkunanda populyatsiyasini yil davomida bir necha avlodda saqlab qolishiga imkon yaratadi. Shu sabab, kuzgi tunlamga qarshi samarali kurash choralari yirik agrosenozlarda ham ekologik, ham molekulyar asoslangan monitoring usullarini, profilaktik chora-tadbirlar tizimini kuchaytirishni talab etadi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "Agrotis segetum bioloekologiyasida edafik omillarning integratsion tahlili" deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda tuproqning fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlari (edafik omillar) kuzgi tunlam

biologiyasiga qanday ta'sir ko'rsatishi bayon qilingan. Ushbu omillar tuproq muhitida yashovchi zararkunandaning rivojlanish bosqichlarini belgilab, populyatsiyasining tarqalishi hamda zarar yetkazish darajasini shakllantiradi.

Agrotis segetum turining geografik tarqalishiga va edafik omillar ta'siri deb nomlangan 4.1-paragrafda kuzgi tunlamning tarqalishiga edafik omillarning ta'siri bayon etilgan. Xususan, bu tur Yevroosiyo va Afrikaning katta qismida keng tarqalgan, ammo Shimoliy Amerika va Avstraliyada uchramaydi. Shimoliy kengliklarda tuproqning chuqur muzlashi lichinkalar nobud bo'lishiga sabab bo'lishi, Sahro kabi o'ta quruq cho'l sharoitlari ozuqa manbalarining yo'qligi bilan tarqalishni cheklashi ta'kidlangan. O'zbekistonda har bir viloyatda uchrasa-da, Farg'ona vodiysida yuqori zararlash darajasi qayd etilgan. Sababi – issiq va quruq iqlim, lekin sug'orish va tuproq unumdorligining yaxshi bo'lishi zararkunandaga qulay muhit yaratgan. Shu bois sho'r yoki botqoqlanishga moyil yerlarda populyatsiya past, suv yetarli, chirindisi boy tuproqli dalalarda esa yuqori bo'lgan. Yirik geografik chegaralarni iqlim-tuproq sharoitlari belgilab, biologik dushmanlar va boshqa omillar lokal populyatsiyani tartibga solishda yordam berishi keltirilgan.

Agrotis segetum lichinkalari rivojlanishiga tuproq xossalarining ta'siri nomli 4.2-paragrafda kuzgi tunlamga tuproq xossalarining ta'siriga doir tajribalar, tadqiqot natijalari ifodalangan. Kuzgi tunlamning tuxum, lichinka va g'umbak bosqichlari bevosita tuproq bilan aloqada o'tadi. Tuproq harorati 20-28 °C oralig'ida bo'lganda lichinkalar tez o'sadi va kam nobud bo'ladi; 15 °C dan past sharoitda rivojlanish sekinlashadi va o'lim ortadi. Tuproq namligi ham muhim: juda nam ($\geq 80\%$) tuproqda yosh lichinkalar patogen zamburug' yoki bo'g'ilish tufayli nobud bo'ladi. Quruq tuproqda kasallik qo'zg'atuvchi mikroorganizmlar faolligi pasayadi, lekin suv tanqisligi ijobiy-salbiy ta'sirga ega bo'lishi mumkin.



7-rasm. Quruq va nam tuproqdagi qurtlarning yashovchanligi

Tadqiqotlarda lichinkalar ortiqcha namdan qochib, o'simlik poyasiga chiqishi yoki yengil qumoqli qatlamlarda bemalol harakatlanishi kuzatilgan. Sho'rlanish, pH, tuproqning kimyoviy tarkibi (makro- va mikroelementlar) ko'pincha bilvosita ta'sir ko'rsatib, ekinlarning o'sishiga va zararkunandaning oziq resursiga ta'sir qilishi aniqlangan (7-rasm, 2, 3-jadvallar).

**Quruq tuproq, nam tuproq va o‘simlik bo‘lgan sharoitda lichinkalar
yashash joyi tanlovi**

1-tajriba					
Nazorat	Lichinkalar soni (dona)				
	Quruq tuproq	O‘simlikda	Nazorat	Nam tuproq	O‘simlikda
I	11	4	I	6	9
II	8	7	II	4	10
III	9	6	III	6	8
IV	8	7	IV	3	10
V	9	5	V	4	9
VI	10	4	VI	4	8
VII	9	4	VII	3	7
Jami	64	37	Jami	30	61
O‘rtacha±SE	9,14±0,40	5,28±0,52	O‘rtacha±SE	4,29±0,47	8,71±0,42
t_r	5,85		t_r	6,99	
P	P<0,001		P	P<0,001	

Turli tuproq namligidagi qurtlarning qiyosiy tahlili

Idishlar raqami	Turli tuproq namligidagi qurtlar soni				
	5%	25%	50%	80%	Σ
T1	3	5	6	1	15
T2	2	10	10	1	23
T3	2	7	8	2	19
T4	2	5	6	2	15
T5	1	6	7	1	15
Σ	10	33	37	7	87

Agrotis segetum turi 6-yoshdagi qurtlarining tuproq namligini tanlash xususiyatlari nomli 4.3-paragrafda tuproq namligini sun'iy ravishda 5%, 25%, 50% va 80% darajada saqlab turish orqali o'tkazilgan tajribalar 25-50% diapazoni lichinkalar uchun eng qulay ekanini ko'rsatgan. 5% namlikda suv tanqisligi, 80% namlikda bo'g'ilish va zamburug' infeksiyalari tufayli nobud bo'lish ortgan. Ushbu

xulosa boshqa turdagi Lepidoptera vakillari uchun ham umumiydir. Dehqonchilikda sugʻorish yoki drenaj rejimidan foydalanib, tuproq namligini maʼlum darajada ushlab turish orqali zararkunanda populyatsiyasi oʻsishini maʼlum maʼnoda cheklash mumkinligi eʼtirof etilgan (4-jadval).

4-jadval

Turli tuproq namligidagi qurtlarning qiyosiy tahlili
(3-jadvaldagi koʻrsatkichlarning matematik-statistik qiyosiy tahlil natijalari)

Tuproq namligi	Min	Max	Oʻrtacha	t_f	P
Tuproq namligi 5% va 25% boʻlgandagi koʻrsatkichlar farqi					
5%	1	3	2±0,316	- 4,694	0,01
25%	5	10	6,6±0,927		
Tuproq namligi 5% va 50% boʻlgandagi koʻrsatkichlar farqi					
5% namlik	1	3	2±0,316	-6,646	0,01
50% namlik	6	10	7,4±0,748		
Tuproq namligi 5% va 80% boʻlgandagi koʻrsatkichlar farqi					
5% namlik	1	3	2±0,316	1,5	-
80% namlik	1	2	1,4±0,244		
Tuproq namligi 25% va 50% boʻlgandagi koʻrsatkichlar farqi					
25% namlik	5	10	6,6±0,927	-0,671	-
50% namlik	6	10	7,4±0,748		
Tuproq namligi 25% va 80% boʻlgandagi koʻrsatkichlar farqi					
25% namlik	5	10	6,6±0,927	5,42	0,01
80% namlik	1	2	1,4±0,244		
Tuproq namligi 50% va 80% boʻlgandagi koʻrsatkichlar farqi					
50% namlik	6	10	7,4±0,748	7,62	0,001
80% namlik	1	2	1,4±0,244		

Tuproq tarkibining kuzgi tunlam qurtlarining qishlash va gʻumbaklanish chuqurligiga taʼsiri nomli 4.4-paragrafda Fargʻona viloyatining Oltiariq (Qiziltepa) hamda Toshloq (Axshak) tumanlaridagi turli tarkibli tuproqlarda (shoʻrlanishi, gips miqdori, qum-loy nisbati) diapauzadagi qurtlarning qishlash chuqurligi qiyoslangan. Gips va tuzlangan qatlamlar kuchli boʻlgan joylarda qurtlar 11-12 sm chuqurlikda qishlashi, shoʻrlanishi kamroq va eskidan sugʻoriladigan yerlarda esa 8-9 sm chuqurlikda diapauza qilishi aniqlangan. Statistik tahlil ($p = 0,001$) bu farqning ishonchli ekanini koʻrsatgan. Shu tariqa tuproqning shoʻrlanish, gips miqdori va suv

o'tkazuvchanligi qishlov va g'umbaklanish chuqurligini boshqaruvchi asosiy omil sifatida baholangan (5-jadval).

5-jadval

Kuz faslidagi qurtlarning qishlov chuqurligi (06.11.2021-y.)

Tuproq chuqurligi (sm)	Tuproq harorati (°C)	Oltiariq tumani Qiziltepa hududi *	Tuproq harorati (°C)	Oltiariq tumani Axshak hududi **
1	8,7°C	-	9,3°C	-
2		-		-
3		-		2
4		1		3
5		2		5
6	9,5°C	3	10,6°C	7
7		4		10
8		6		11
9		8		11
10		8		15
11	10,2°C	10	11,9°C	12
12		11		9
13		15		6
14		12		5
15		9		3
16	12,4°C	4	13,3°C	1
17		3		-
18		2		-
19		1		-
20		1		-
O'rtacha chuqurlik		11,9±0,325		9,41±0,292
Faktik ko'rsatkich (tf)		5,694		
Ishonchlik darajasi (p)		0,001 (yuqori ishonchli daraja)		

Izoh: * - o'rtacha, joylarda kuchli sho'rlangan va gipsli, o'rtacha qumoqli yangidan sug'oriladigan o'tloqi saz-allyuvial tuproq turli chuqurlikdagi qurt soni (n=70); ** - joylarda 0,5-0,7 ba'zan 1-2 m.dan sho'x qatlamlari mavjud, kuchsiz sho'rlangan va yuvilgan, o'rtacha va og'ir qumoqli eskidan sug'oriladigan o'tloqi saz allyuvial tuproq turli chuqurlikdagi qurt soni (n=74)

Tuproq tarkibining *Agrotis segetum* g'umbagi hayotchanligi va kapalak chiqish darajasiga ta'siriga oid 4.5-paragrafda g'umbak bosqichida tuproq qatlami qalinligi va zichligi kapalakning normal chiqishiga to'sqinlik qilishi mumkinligi ifodalangan. Shuningdek, 5-10 sm chuqurlikda 80–90% kapalak muvaffaqiyatli uchib chiqsa, 15-20 sm da namlikning notekis taqsimlanishi va tuproq zichligi oshishi bois chiqish darajasi 30-60% gacha pasayishi kuzatilgan. Toshloq tumani tuprog'idagi sho'x qatlam kapalaklar qanotida nuqsonlar keltirib chiqarishi yoki g'umbakning nobud bo'lishini oshirishi qayd etilgan. Bu tadqiqotlar tuproq parametrlarining g'umbak bosqichiga ham jiddiy ta'sirini ko'rsatib, chuqur yer

haydash yoki melioratsiya choralari zararkunandaga qarshi boshqaruvda qo'llash mumkinligini anglatadi (6-jadval).

6-jadval

Oltiariq tumani Qiziltepa hududining tuprog'idagi tajriba natijalari

G'umbaklanish chuqurligi (sm)	Uchadigan kapalaklar soni (%)	Ucha olmaydigan kapalaklar soni (%)	Tuproqda nobud bo'lgan kapalaklar soni (%)	Tuproqda nobud bo'lgan g'umbaklar soni (%)
5 sm (n=20)	18 (90%)	–	–	2 (10%)
10 sm (n=20)	18 (90%)	2 (10%)	–	–
15 sm (n=20)	16 (80%)	4 (20%)	–	–
20 sm (n=20)	12 (60%)	5 (25%)	3 (15%)	–

Agrotis segetum avlodlarining turli tuproq-iqlim sharoitlaridagi mavsumiy rivojlanish xususiyatlari nomli 4.6-paragrafda kuzgi tunlamga ta'sir etuvchi ayrim abiotik omillarga e'tibor qaratilgan. Harorat va tuproq-iqlim sharoitlari *A. segetum* ning yiliga nechta avlod berishiga va ularning rivojlanish tezligiga ta'sir qiladi. Oltiariq, Quva, Beshariq hamda Toshloq tumanlarida 2021–2024-yillarda olib borilgan kuzatuvlarda issiq (28-39 °C) mavsumlarda lichinka bosqichi tez o'tib, 3-4 avlodni shakllantirishi, yil salqin (16-20 °C) kelgan mavsumlarda esa rivojlanish 1-2 haftaga cho'zilishi qayd etilgan. Tuproq sho'rlanishi, namligi va qumoqligi ham avlodlarning ko'chish dinamikasiga ta'sir qilib, ekinlarda zararlash darajasi o'zgarishiga sabab bo'lgan (7-jadval).

7-jadval

Beshariq tumanida kuzgi tunlam 1-avlod individlarining tuxumdan kapalak bosqichiga rivojlanishining qiyosiy tahlili

Yil	Tuxumlik davr	Kapalak paydo bo'lishi	Davomiylik
2021	12.04 (16,6°C)	27.05 (25,5°C)	45 kun
2022	10.04 (22,5°C)	25.05 (22,7°C)	45 kun
2023	03.04 (17,1°C)	27.05 (23,2°C)	54 kun
2024	04.04 (15,1°C)	29.05 (25°C)	55 kun

XULOSALAR

“Farg‘ona vodiysi sharoitida kuzgi tunlam (*Agrotis segetum*) bioekologiyasi va unga edafik omillarning ta’siri” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Ilk bor COI geniga asoslangan DNK barkoding tahlillari Farg‘ona vodiysi hududidan olingan namunalar 99-100% aniqlikda *A. segetum* turiga mansub ekanligini aniqlangan hamda genetik masofa (K2P) 0,2-0,3% bo‘lib, bu bir tur ichidagi populyatsiyalararo tafovut mavjudligini tasdiqlandi.

2. Farg‘ona vodiysi sharoitida *A. segetum* turining yil davomida to‘rtta to‘liq avlodi rivojlanishi aniqlandi hamda tuxum qo‘yish bahor (aprel-iyun) va kuz (avgust-sentabr) mavsumlarida eng faol bo‘lib, har bir avlodning rivojlanish bosqichlari haroratga chambarchas bog‘liq ekanligi asoslab berildi.

3. Urg‘ochi kapalaklar har mavsumda 400 dan 1900 tagacha tuxum qo‘yishi aniqlanib, lichinkalik bosqichlarida tana rangining o‘zgarishi, soxta oyoqlar soni va tirnoqchalarning rivojlanishi, shuningdek g‘umbak 5-25 sm chuqurlikda 7-14 kun (ba’zan 3 haftagacha) davom etib, kapalak chiqishiga tayyorgarlik bosqichi sifatida muhim ahamiyat kasb etishi izohlab berildi.

4. Oziq tarkibida shakar va oqsilga boy bo‘lgan qizil lavlagi, sabzida lichinkalarning tana uzunligi (40 mm dan ortiq) va massasi (640-660 mg) yuqori, Brassicaceae (sholg‘om, turp) kabi glyukozinolat moddasi yuqori o‘simliklarda bu ko‘rsatkichlar nisbatan past (36-37 mm, 618-628 mg) bo‘lishi qayd etildi.

5. Turp va sholg‘om agrotsenozlarida lichinka tana og‘irligi bo‘yicha variatsiya koeffitsiyenti (CV) yuqoriroq (5,46-5,70%) bo‘lib, qizil lavlagi va sabzida nisbatan pastroq (3,52-4,09%) bo‘lishi, tana uzunligi bo‘yicha CV barcha holatlarda 3-3,6% atrofida barqaror saqlanib, zararkunanda populyatsiyalaridagi moslashuv mexanizmlarining xilma-xil ifodalanishini aniqlandi.

6. Poaceae, Fabaceae, Brassicaceae, Solanaceae, Amaranthaceae, Asteraceae, Rosaceae va boshqa oilalarga mansub ko‘plab madaniy hamda yovvoyi o‘simliklar *A. segetum* uchun ozuqa manbai vazifasini o‘tashi qayd etilib, bu zararkunandaning populyatsiyasi doimiy saqlanishiga imkon yaratadi.

7. Tuproqning fiziki (mexanik tarkib, namlik, aeratsiya), kimyoviy (pH, sho‘rlanish, makro- va mikroelementlar) hamda biologik (mikroorganizmlar, entomopatogen zamburug‘lar, nematodalar va h.k.) xususiyatlari *A. segetum* turining rivojlanish sur‘atlari va xavflilik darajasiga bevosita ta’sir etishi aniqlandi hamda sovuq, sho‘rlik yoki ortiqcha namlik lichinkalarning nobud bo‘lishi va populyatsiyaning susayishiga olib kelishi isbotlandi.

8. 20-28 °C atrofidagi harorat lichinkalarning tez o‘ssishi va g‘umbakdan chiqishining yuqori foizda kechishini ta’minlaydi. Biroq ortiqcha nam tuproqda yosh lichinkalar dimiqish yoki patogen zamburug‘lar bilan zararlanish oqibatida nobud bo‘lishi, o‘ta quruq sharoitda esa rivojlanish sekinlashishi aniqlandi.

9. Sho‘rlangan tuproqlarda lichinkalarning qishlash chuqurligi (11-12 sm gacha) ortib, eskidan sug‘oriladigan tuproqlarda 8-9 sm atrofida bo‘lishi qayd etildi va farqlar statistik jihatdan ishonchli bo‘lib, populyatsiya stress omillarga diapauza xususiyatini moslashtirishi bilan javob reaksiyasi hosil qilishi aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.06.2021.В.05.06 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ФЕРГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

ФЕРГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ЁКУБОВ АБУТОЛИБ АХМАДАЛИ УГЛИ

**БИОЭКОЛОГИЯ ОЗИМОЙ СОВКИ (*AGROTIS SEGETUM*)
В УСЛОВИЯХ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ И ВЛИЯНИЕ НА НЕЕ
ЭДАФИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ**

03.00.06 – Зоология

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Фергана–2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2024.4.PhD/B1315.

Диссертационная работа выполнена в Ферганском государственном университете.

Автореферат диссертации размещён на трёх языках (узбекском, русском и английском (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.fdu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Зокиров Исломжон Илхомжонович
доктор биологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Мирзаева Гулнара Саидорифовна
доктор биологических наук, профессор

Юнусов Миркарим Мирзахалилович
кандидат биологических наук, доцент

Ведущая организация:

Андижанский государственный университет

Защита диссертации состоится 12 июля 2025 года в 09:00 на заседании Научного совета PhD.03/30.06.2021.B.05.06 по присуждению ученых степеней при Ферганском государственном университете. (Адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, 19. Тел.: (+99873) 244-44-02; Факс: (+99873) 244-44-93; E-mail: fardu_info@umail.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ферганского государственного университета (зарегистрирована под №539). (Адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, 19. Тел.: (+99873) 244-44-94).

Автореферат диссертации разослан 30 июня 2025 г.
(Протокол реестра рассылки №26 от 30 июня 2025 г.)



Ф.Р. Холбоев

Заместитель председателя научного совета по присуждению ученых степеней, д.б.н., профессор

Б.М. Шералиев

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.н.б.

А.К. Хусанов

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Во всём мире одной из важнейших задач считается защита сельскохозяйственных культур, вредителей и заболеваний обеспечение продовольственной безопасности и укрепление устойчивости экосистем. В последние годы ареал вредных насекомых, в частности вида *Agrotis segetum*, расширяется, а его распространение по разным географическим регионам идёт ускоренными темпами. В результате ущерб от указанной совки, занесённой в перечень адвентивных и инвазивных видов, представляет серьёзную угрозу главным образом для сельскохозяйственных культур и природных экосистем. Сведения о популяционной структуре озимой совки (*Agrotis segetum*) ограничены, причём большинство исследований посвящено лишь её основным биологическим особенностям и оценке вреда, наносимого ей сельскому хозяйству. Обладая широким спектром питания, данная совка вызывает значительные потери биомассы и оказывает отрицательное влияние на урожайность растений. В связи с этим в условиях Ферганской долины важно определить биоэкологические особенности озимой совки, проанализировать её генетическую специфику, а также установить роль и значимость почвенно-климатических (эдафических) факторов в развитии данного вида, что имеет существенное научно-практическое значение.

В мировом масштабе неуклонно расширяется спектр исследований, посвященных морфобиологическим особенностям, циклу развития, физиологии и молекулярно-генетическому составу озимой совки. В этом контексте особое внимание уделяется массовому размножению вредоносных совков, степени их вреда для различных экосистем и усилению карантинных мер. В частности, данный вредитель при возникновении благоприятных климатических и кормовых условий в течение сезона представляет серьёзную угрозу для урожая в полевых условиях. Раскрытие биологических основ этого процесса позволяет предотвратить его физиологическую адаптацию и устойчивое размножение в различных регионах. Исходя из этого, определение молекулярных, физиологических и экологических особенностей бабочки, оценка влияния почвенных условий – влажности, уровня pH, элементного состава и микрофлоры – на развитие вида, а также разработка эффективных мер борьбы для контроля его широкого кормового диапазона на сегодняшний день имеют важное научно-практическое значение.

В Узбекистане расширяются масштабы научно-исследовательских работ, посвящённых изучению распространения совки, степени их вредоносности и совершенствованию мер борьбы с ней. В частности, в Стратегии развития «Нового Узбекистана» на 2022-2026 годы поставлены задачи по «обеспечению устойчивого увеличения объёмов производства сельскохозяйственной продукции и продовольственной безопасности путём научно обоснованного интенсивного развития сельского хозяйства, повышению доходов дехкан и фермеров как минимум в 2 раза, а также доведению годового прироста в

